

Dars jarayonida metodlarni qo'llashda o'qituvchi mahorati

Аннотация

Dars jarayonida metodlarni qo'llashda o'qituvchi mahorati masalalari yoritib berilgan.

Dars ta'lim jarayonining asosiy tashkiliy usuli bo'lib, unda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining hamkorligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Dars bevosita o'qituvchi rahbarligida olib boriladi. Abu Nasr Forobiy darsni shunday tasvirlaydi: —O'quvchi o'zini shunday his etsinki, go'yoki bog'da guldand-gulga uchib yurgan kapalakka o'xshasin. Shunday ekan, o'quvchi darsda faol ishtirok etishi, yangi bilimlar o'zlashtirishi uchun dars qiziqarli bo'lishi lozim. Bunday darsni o'qituvchi tashkil etishi uchun muayyan tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim. O'qituvchining darsga tayyorgarligiga quyidagilarni kiritamiz:

- dars maqsadlarini to'g'ri aniqlay olishi;
- dars ishlanmasining bo'lishi;
- darsda qo'llaniladigan metodlarni aniqlay olishi;
- vaqtni to'g'ri taqsimlay olishi.

Ta'lim jarayoniga e'tibor hozirgi kunda emas, balki barcha davrlarda ham talab katta bo'lgan. Shu jumladan, Abu Ali ibn Sino ta'lim o'qitish (dars) jarayoniga katta ahamiyat bergan va uni tubandagi tarzda tashkil qilishni zarur, deb hisoblaydi:

- O'quvchini birdan kitobga jalb qilib qo'yimaslik kerak.
- O'qitish asta-sekin, osondan qiyinga o'tish yo'li bilan olib borilishi lozim.
- O'quvchilar bilan amalga oshiriladigan tarbiya ularning yoshiga mos bo'lishi shart.
- O'qitish jamoa tarzida uyushtirilishi darkor.
- O'qitish o'quvchining mayli va qobiliyatini hisobga olgan holda olib borilishi zarur.
- O'qitish jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borilishi shart.

Darsda o'qituvchi rahbar sifatida har bir o'quvchining bilim olish xususiyatlarini inobatga oladi. O'quvchilarning ta'lim jarayonida o'rganiladigan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlarini rivojlantirish va ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash hamda shakllantirish uchun qulay sharoitlar yaratadi. O'qituvchi darsni o'zi tayyorlab olgan reja asosida olib boradi. Belgilab olgan rejasida maqsadni ko'zlagan holda o'quvchilarga bilimlar berib boradi. Bu jarayonda o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun turli metodlardan foydalana boshlaydi. Metodlarni qo'llashda sinf o'quvchilarining xususiyatlarini, ularning faolligini, fan xususiyatlarini hisobga oladi.

Metodlar va usullarni tanlash dars jarayonida o'qituvchi faoliyatiga bog'liq hisoblanadi. Bu esa belgilangan maqsadga bog'liq. Yangi materialni bayon etishda biror metod qo'llansa, darsning ikkinchi qismida esa boshqa metodlar qo'llaniladi. Darsning turli bosqichlarida puxta o'yilagan holda metodlar tanlanadi.

Har bir o'qituvchida qo'llash mumkin bo'lgan metodlar anchagina bor. O'qituvchi bu metodlarni qo'llashdan maqsadi o'quvchilarni ta'lim jarayonida faollashtirish, ularning diqqatini bir joyga to'plash, muammoli vaziyatlardan chiqib ketishga undash hisoblanadi.

O'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan ta'lim metodlari majmuasi boshlang'ich sinflardan yuqori sinflarga o'tish asosida o'zgarib hamda murakkab xususiyat kasb etib boradi. Ushbu jarayonda ayrim metodlarni qo'llashga bo'lgan ehtiyoj kamayadi. Ta'lim metodlarining foydalanish ko'lamini, holati o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va mahorati darajasiga bog'liq holda o'zgaradi.

O'qituvchi ta'lim metodlarini qo'llashda pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim. Pedagogik mahorat nima? Pedagogik mahorat- o'qituvchilarning shaxsiy (bolajonligi, xayrixoxligi, insonparvarligi, mehribonligi) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoiyligi, ijodkorligi, qobiliyati) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, o'qituvchilarning ta'limiy va tarbiyaviy

faoliyatida yuqori darajada erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyatdir. U o'z fanini mukammal bilgan, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan, o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab topish uchun, amaliy faoliyat olib boradigan har bir o'qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo'ladi. Ta'lim metodlarini qo'llashda pedagogik mahoratga har bir o'qituvchi ega bo'lishi lozim. Shunday ekan, ta'lim metodlarini qo'llashda o'qituvchi nimalarga ahamiyat berishi lozim?

1. O'qitiladigan fan va mavzular mazmuni;
2. Fanning o'qitilish metodikasiga;
3. Sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga;
4. O'quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasiga;
5. Ta'lim muassasasining moddiy ta'minotiga;
6. O'z pedagogik mahoratiga;
7. mavzuga oid ko'rgazmali materiallarning mavjudligiga.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagog darsni puxta rejalashtirishi, metodlarni o'z o'rnida, natijasini ko'rgan holda qo'llashi shart. O'qituvchining qo'llayotgan har bir metodi darsning samarali bo'lishiga xizmat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pedagogika. /prof. M.X.Toxtaxodjayeveaning umumiy tahriri ostida.- T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010,- 400 b.
2. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika T.: O'qituvchi. 2010 y. 254-263 b.
3. Pedagogik mahorat. O'quv –metodik qo'llanma. TDPU.T., 2005

Baratova Nasiba Turopovna
(Qashqadaryo VXTXQTMOI, O'zbekiston)